

Raqamli Texnologiyalar Asosida Mustaqil O'qitishning Ta'lim Jarayonidagi O'Rni Va Ahamiyati

Mamatova Umida Zafarjon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

umidamamatova1833@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar asosida mustaqil o'qitishning ta'lim jarayonidagi o'rni va pedagogik ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilar va talabalarda mustaqil bilim olish, tanqidiy fikrlash va raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, maqolada raqamli ta'lim platformalari, onlayn darslar, masofaviy o'qitish tizimlari va interaktiv o'quv resurslari orqali mustaqil o'qitishni samarali tashkil etish yo'llari tahlil qilingan. Maqolada shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtirish, o'zlashtirish darajasini oshirish hamda ta'lim samaradorligini ta'minlash omillari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'slar: Mustaqil ta'lim, raqamli ta'lim, raqamli platformalardan foydalanish, masofaviy ta'lim, pedagogik texnologiya, ta'lim tizimi, strategik maqsadlar, raqamli vositalar.


Zamonaviy ta'lim tizimi global raqamli o'zgarishlar ta'sirida tubdan yangilanmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi o'quvchilarning bilim olish uslublarini o'zgartirib, ta'lim jarayonida mustaqil o'rganish faoliyatining ahamiyatini oshirmoqda. Bugungi kunda masofaviy ta'lim, onlayn kurslar, elektron platformalar, sun'iy intellektga asoslangan o'quv vositalari orqali mustaqil o'qitishni samarali tashkil etish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa pedagogik jarayonning innovatsion, o'quvchi markazlashgan va moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida sodir bo'layotgan tub islohotlar zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishni, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, raqamli ta'lim platformalarining rivojlanishi va ularning o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi mustaqil o'qish jarayonini samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Ayniqsa, pandemiya davridan keyin raqamli texnologiyalarga tayanilgan o'qitish zarurati yanada kuchaydi va u doimiy ta'lim amaliyotiga aylana boshladi. Shunday sharoitda talaba va o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, ularda mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, o'z-o'zini boshqarish, resurslardan to'g'ri foydalanish qobiliyatini rivojlantirish zamon talabi hisoblanadi. Shuning uchun raqamli texnologiyalar asosida mustaqil o'qitishni ilmiy asoslash, uning metodik va amaliy yechimlarini aniqlash bugungi ta'lim islohotlarida dolzarb masala sanaladi.

Ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi nafaqat an'anaviy darslar shaklini o'zgartirmoqda, balki o'quvchining o'ziga xos individual o'rganish uslubiga mos holda bilim olishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bunday sharoitda mustaqil ta'lim olish – bilimga ega bo'lishning asosiy omiliga aylanmoqda. Shu boisdan ham raqamli platformalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, mustaqil izlanish olib borish va mas'uliyat bilan ta'lim olish kabi kompetensiyalarini rivojlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarni egallash zarur va shartligi, bu yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini berishi, bugungi kunda korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroqda ekanligi alohida ta'kidlanib, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishi, shuningdek ortiqcha xarajatlarni kamaytirishi, natijadorlikni oshirishi, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash maumkinligi asoslab berdi.



Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan — Raqamli O'zbekiston – 2030 dasturini ishlab chiqish va joriy etish vazifalari belgilandi. Bu esa sanoatning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish, sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, yuqori texnologiyali korxonalar, texnoparklar, ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish, zamonaviy muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini barpo etishga yanada keng imkoniyatlar yaratadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'lim sohasidagi islohotlari va raqamli platformalarni joriy etish bo'yicha tashabbuslari O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish va yoshlarning zamonaviy bilimlarga ega bo'lishlarini ta'minlashga qaratilgan. Ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, raqamli platformalar orqali bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

O'zbekistonda raqamli ta'lim platformalarini rivojlantirish, mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan. Ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va zamonaviy bilimlarni egallashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, raqamli platformalar orqali bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Yoshlar o'rtasida raqamli texnologiyalarga bo'lgan qiziqish yuqori. Ularning ta'lim olishda zamonaviy platformalardan foydalanishi milliy rivojlanishning strategik maqsadlariga mos keladi.


Mustaqil ta'lim olishda raqamli ta'lim platformalari zamonaviy va samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ular nafaqat bilim olish jarayonini osonlashtiradi, balki shaxsiy rivojlanishga ham katta hissa qo'shadi. Raqamli platformalardan oqilona foydalanish har bir talabaning ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Mustaqil ta'lim olish bugungi kunda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, o'z-o'zini rivojlantirish, yangi ko'nikmalarni o'zlashtirish va bilimlarni chuqurlashtirish uchun samarali vositadir.

Mustaqil ta'lim talabaning o'z-o'zidan bilim olish, o'zini rivojlantirish va ta'lim jarayonida faol ishtirok etish jarayonidir. Bu yondashuv ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga undaydi. Mustaqil ta'lim bugungi ta'lim tizimining muhim qismi bo'lib, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, mas'uliyatni his qilishiga va bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Bu yondashuv har bir shaxsni zamonaviy jamiyat talablariga moslashishga tayyorlaydi.

Mustaqil ta'lim jarayonida talabalar fan nuqtai nazaridan kelib chiqib individual yondashgan holda raqamli texnologiyalarni kasbiy faoliyatida qo'llashi mumkin. Hozir yangilanib borayotgan davrda raqamli texnologiyalarni mukammal tarzda o'rganib, tatbiq qilib, amalda qo'llab shaxsiy faoliyatni rivojlantirish kerak. Raqamli axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'tiladigan ma'ruza darslari talabalarga raqamli axborot texnologiyalarisiz o'tiladigan darslarga nisbatan ancha samarali va tushunarli tarzda qabul qilinadi. Xalqimizda bir naql bor: "Minga marta eshitgandan bir marta ko'gan Afzal". Talaba amaliyot jarayonida ham raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarga ochiq dars mashg'ulotlari o'tib, o'quvchilarni diqqatini o'ziga jalb qiladi. Raqamli texnologiyalarni nafaqat ta'limda, boshqa turli sohalardan qo'llash ham effekt beradi. Bitta fanni mustaqil ta'limni misol sifatida ko'radigan bo'lsak, professor o'qituvchi har bitta talabaga alohida yoki talabani guruhlariga bo'lgan holda mustaqil ta'lim topshiriqlarini berishi mumkin. Referat, prezentatsiya, dars ishlanma va shu kabilarni tayyorlash uchun raqamli texnologiyalarni ahamiyati yuqoridir.

Raqamli ta'lim platformalari o'quvchilarga individual yondashuvni ta'minlab, bilim olish jarayonini samaraliroq qiladi.

Raqamli ta'lim muhiti mustaqil ta'lim uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Onlayn platformalar va manbalar talabalarga darsliklar, videolar, maqolalar va interaktiv tadbirlarni o'z ichiga olgan keng ko'lamli o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyatini berish uchun ishlatilishi



mumkin. Bu resurslar alohida talabalarning o'ziga xos ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirish uchun moslashtirilishi mumkin, bu ularga o'z tezligida va o'z uslubida o'rganish imkonini beradi. Bundan tashqari, ta'lim dasturlari, onlayn viktorinalar va virtual simulyatsiyalar kabi raqamli vositalar o'rganishni yanada qiziqarli va interaktiv qilib, mustaqil ta'lim samaradorligini yanada oshirishi mumkin. Raqamli vositalardan foydalanish, shuningdek, o'qituvchilarga o'quv jarayoni haqida qimmatli tushunchalar berishi mumkin, bu ularga alohida talabalar qo'shimcha yordam yoki ko'rsatmalarga muhtoj bo'lishi mumkin bo'lgan sohalarni aniqlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar ta'lim tizimiga chuqur kirib kelishi o'quvchilarning mustaqil bilim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Ta'lim jarayonida turli raqamli platformalar, interaktiv resurslar va masofaviy o'qitish vositalaridan foydalanish mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bunday texnologik yondashuvlar ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchini faollashtirish, shaxsiylashtirilgan o'qitishni ta'minlash va o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmlarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Shuningdek, mustaqil o'qitishni raqamli muhitda tashkil etish nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarda mas'uliyat, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli — Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori.
2. Axborot texnologiyasi va tizimi: Oliy o'quv yurti uchun darslik/ R.X.Alimov va boshqalar. – T.: Voris. 2011. B 34-35
3. I Yulduz, M Umida. "Pedagogical Features of the Formation of Pedagogical Ethics in Future Teachers"- Бюллетень науки и практики, 2021. Related articles Allversions.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=ZW3KcwEAAAAJ&authuser=1&citation_for_view=ZW3KcwEAAAAJ:Y0pCki6q_DkC.
4. 4.U.Mamatova. Ta'lim jarayonida mustaqil o'qitishning o'rni va ahamiyati. Science Uzbekistan International congresses on modern sciences-IV "global prospects for multidisciplinary research and education". Xalqaro konferensiya. Chirchik State Pedagogical University April 08-10, 2025.